

TXVUda “Talabalar muzey kunlari” loyihasini amalga oshirish maqsadida “Shahidlar xotirasi maydoni” va “Qatag‘on qurbonlari” muzey”iga talabalarning tashrifi

B A Y O N N O M A S I

2025 yil 14-oktabr

TXVU Madaniyat va ijodkorlik bo‘limi hamkorligida 2025 yil 14-oktabr kuni “Talabalar muzey kunlari” loyihasini amalga oshirish hamda talabalarning Vatanga bo‘lgan sadoqati, o‘zaro mehr-oqibat, yuksak ma‘suliyat, bag‘rikenglik, sog‘lom dunyoqarash, shukronalik, vatan taraqqiyotiga dahldorlik tuyg‘ularini yanada rivojlantirish, shuningdek siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Shahidlar xotirasi maydoni” va “Qatag‘on qurbonlari” muzeylariga reja-grafigi asosida Toshkent Xalqaro Vestminster Universitet talabalarining tashrifi amalga oshirildi va bir qancha yoshlar jalb etildilar. Bunda talabalar muzey ma‘muriyari tomonidan tavsiya etilgan “Shahidlar xotirasi maydoni” haqidagi berilgan qiziqarli ma‘lumotlar bilan tanishdilar va esdalik uchun suratga tushdilar.









Shahidlar xotirasi maydoni” va “Qatag‘on qurbonlari” muzeylariga tashkil etilgan tashrif davomida talabalar o‘zbek xalqining og‘ir va mashaqqatli tarixiy davrlari, mustaqillik yo‘lidagi kurashlar, millat fidoyilarining jasorati hamda yurt ravnaqi uchun jonini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasi bilan yaqindan tanishdilar.

Mazkur tashrif yoshlarning tarixiy xotira, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada mustahkamladi. Tadbir ma’naviy-ma’rifiy ahamiyat kasb etib, talabalarda o‘z xalqining tarixiga hurmat, istiqloq qadriyatlariga sadoqat ruhini uyg‘otishga xizmat qildi.



TXVU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi Prorektori:

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova